

MALAKAVIY AMALIYOT YAKUNIDA TALABALAR EGALLAGAN BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI BAHOLASH MEZONLARI

N.I. Mirzaqulova

Buxoro davlat pedagogika instituti

“Texnologik ta’lim” kafedrası doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14973702>

Annotatsiya: Amaliyotchi talabalar 4+2 tartibda malakaviy amaliyot yakunida yakka tartibdagi ishni keng ko‘lamda reja topshiriqlarini mustaqil individual bajarish va egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari baholash, malakaviy amaliyot yakunida talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritish natijalarini baholash mezonlari jadvali keltirilgan.

Tayanch iboralar: talaba, malakaviy amaliyot, bilim, ko‘nikma, malaka, baholash, mustaqil, xulosa, qaror qabul qilish, ijodiy fikr, vazifalarni bajarish.

O‘quv jarayonini uzluksiz davom etishini ta‘minlash, talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish, ularda bevosita amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish maqsadida 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-134-sonli Farmonining 7-bandida hamda 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-289-Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy tadqiqotimiz muayyan darajada xizmat qiladi.

Talabalarning nazariy bilimlarini sinovdan o‘tkazish, fanlarga doir mustaqil ta’limni samarali tashkil etish, hayotiy faoliyat bilan o‘zaro bog‘lash bo‘yicha tashkil etilgan 4+2 tartibda malakaviy amaliyotida texnologik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil oladigan talabalar barcha majburiy fanlaridan olgan bilimlarini umumta’lim maktablaridagi o‘quv jarayonida sinab ko‘radilar, amalga tatbiq qiladilar. Shuning uchun ham 4+2 tartibda malakaviy amaliyoti o‘zining ilmiy-tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalariga ega.

4+2 tartibdagi malakaviy amaliyotni modifikatsion yondashuv asosida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llab tashkil etish muhim vazifalardan hisoblanadi.

4+2 tartibdagi malakaviy amaliyoti samaradorligini oshirish, umumta’lim maktablari o‘quvchilarini ta’lim jarayonining subyektiga aylantirish, o‘quvchilarining egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishning qulay yo‘llarini aniqlash, sinfdan tashqari ishlari tashkil qilish singari faoliyatlar 4+2 tartibda malakaviy amaliyotning ilmiy-tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Talabalar 4+2 tartibda malakaviy amaliyoti davrida “Texnologiya” fani tarixi, maktablarda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish metodikasini o‘zlashtirishlari zarur.

Amaliyotchi talabalar 4+2 tartibda malakaviy amaliyot yakunida yakka tartibdagi ishni keng ko‘lamda reja topshiriqlarini mustaqil individual bajarish va egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari baholanadi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini ob'ektiv baholash muhim vazifadir. Ushbu komponentlarni baholash ta'lim jarayonini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi va o'quv faoliyatini optimallashtirishga yordam beradi. Baholash mezonlari ta'lim darajasiga va muayyan fan sohasiga qarab farq qilishi mumkin, lekin ba'zi umumiy tamoyillar o'zgarishsiz qoladi.

Birinchidan, baholash mezonlari aniq va shaffof bo'lishi kerak. Talabalar ishi qanday baholanishini oldindan bilishlari kerak. Bu ularga o'z bilimlarini mustaqil nazorat qilish va o'quv faoliyati uchun motivatsiyani oshirish imkonini beradi. Mezonlarning aniqligi ham baholashda sub'ektivlikni kamaytirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, baholash usullari va shakllarining xilma-xilligini hisobga olish kerak. Baholash yozma va og'zaki, shuningdek amaliy topshiriqlarni, loyihalarni va guruh ishlarini o'z ichiga olishi mumkin. Baholashning har xil turlariga o'rganishning turli tomonlarini va talabalarining individual qobiliyatlarini hisobga olish uchun modifikatsion yondashuv bilan yondashish kerak.

Uchinchidan, nafaqat yakuniy natijaga, balki o'quv jarayoniga ham e'tibor berish muhimdir. Baholash talabaning harakatini, malakaviy amaliyotdagi faolligini va o'quv jarayonidagi ishtiroki darajasini baholashni o'z ichiga olishi mumkin. Bu o'z-o'zini hurmat qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun asos yaratadi.

4+2 tartibda malakaviy amaliyot yakunida talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, 4+2 tartibda malakaviy amaliyotning mazmun-mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda 4+2 tartibda malakaviy amaliyot mazmuni bo'yicha tasavvurga ega bo'lganligi baholanadi.

Baholash mezonlari va vositalari - bu o'qitish jarayonida talabalarining nazariy bilimlarini, amaliy ko'nikmalarini va boshqa malakalarini baholash uchun qo'llaniladigan standartlar va usullar. Baholash jarayonida ko'plab metodlar va vositalar, masalan, testlar, ishchi hujjatlar va amaliy ishlar ishlatiladi. To'g'ri tanlangan mezonlar va vositalar talabaning bilim darajasini samarali aniqlash va baholashga yordam beradi.

Baholash - ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

4+2 tartibda malakaviy amaliyot o'quv dasturida belgilangan tartibda baholanadi.

4+2 tartibda malakaviy amaliyot yakunida talabalar tomonidan o'quv materialari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar xosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi.

4+2 tartibda malakaviy amaliyot yakunida amaliyotchi-talaba yozma ravishda amaliyot dasturi bo'yicha tayyorlagan hisobotni hamda uni qabul qiluvchi muassasa rahbari tomonidan imzolangan kundaligi, hisoboti va kasbiy faoliyatga oid bo'lgan barcha hujjarlar rasmiylashtiriladi, asl nusxalari qabul qilinadi.

4+2 tartibda malakaviy amaliyot yakunida talaba yozma ravishda dastur bo'yicha tayyorlagan hisobotni hamda uni qabul qiluvchi tashkilotdan tayinlangan rahbar imzolagan kundaligi bilan birga oliy ta'lim muassasasidan tayinlangan rahbarga kafedra yig'ilishi bayonida belgilangan muddatlarda topshiradi. Talabaning 4+2 tartibda malakaviy amaliyotini baholash jarayoni tegishli kafedralarda o'tkaziladi. Baholash jarayonida dekan, tegishli kafedra

mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma(bo'lim) vakili hamda qabul qiluvchi tashkilotdan malaka amaliyoti rahbari ishtirok etishi mumkin.4+2 tartibda malakaviy amaliyot natijasi bo'yicha baho talabani kursdan kursga o'tishi va stipendiya belgilashda hisobga olinadi. Amaliyot davrida amaliyotchi talabani 4+2 tartibda malakaviy amaliyot dasturida belgilangan vazifalarni bajarishi sifatida belgilab boriladi va ushbu baholar hisobot himoyasi bo'yicha baholanishida inobatga olinadi.

4+2 tartibda malakaviy amaliyot yakunlari bo'yicha qoniqarsiz baho olgan yoki uzrli sabablarsiz amaliyotga qatnashmagan talaba akademik qarzidor sifatida oliy ta'lim muassasasi rektori buyrug'i bilan kursdan qoldiriladi.

Amaliyotchi-talaba dastur talablarini to'liq bajarmasa, u holda amaliyot muvaffaqiyatli o'tdi deb hisoblanmaydi. Amaliyot talablarini bajarmagan amaliyotchi-talaba faoliyati qoniqarsiz deb baholanadi.4+2 tartibda malakaviy amaliyot davrida talaba amaldagi baholash nizomiga muvofiq ishlab chiqilgan malakaviy amaliyot dasturiga kiritilgan baholash mezonlari asosida baholanadi.

Amaliyotchi talabalar:

- amaliyotchi talabalar imkoniyati doirasida hamma topshiriqlarni bajarib, faol ishtiroki uchun ;
- amaliyotchi talabalar imkoniyatidan kelib chiqib topshiriqni bajarganligi uchun
- amaliyotchi talabalar imkoniyatidan kelib chiqib, qisman topshiriqni bajarganligi uchun;
- amaliyotchi talabalar imkoniyatidan kelib chiqib, topshiriqni tushunmaganligi va bajarmaganligi uchun baholanadi.

4+2 tartibda malakaviy amaliyot natijalarini baholash mezonlari

Maksimal ball-100

T/r	Baholash vositasi	Baholash mezonlari	Mak ball
1	Kundalik	Tuzulishi va mazmuni to'liq talabga javob beradi. Kundalik rasmiylashtirilgan va o'z vaqtida topshirilgan. Amaliyot obyekti tomonidan imzolangan.	30
		Tuzulishi va mazmuni qisman talabga javob beradi. Kundalik rasmiylashtirilgan va o'z vaqtida topshirilgan. Amaliyot obyekti tomonidan imzolangan.	
		Tuzulishi va mazmuni to'liq talabga javob beradi. Kundalikning rasmiylashtirilishi va topshirish muddatiga e'tirozlar bor. Amaliyot obyekti tomonidan imzolanmagan	
2	Individual topshiriqlar	Texnologiya fani taqvim mavzu ish rejasini tuzish.	50
		Sinf rahbarining ma'naviy-ma'rifiy, ta'limiy-tarbiyaviy rejasini tuzish.	
		Amaliyotchi talabani ta'limiy-tarbiyaviy rejasi professionallik bilan tuzilgan o'z vaqtida.	
		Dars kuzatish tahlil qilish	
		Psixologik-dagnostik tashxis daftarini yuritish	

		Har bir o'tgan darsi uchun konspekt;	
		Ochiq darslar ishlanmasi va bayonnomasi.	
		Amaliyot davomida tayyorlagan ko'rgazmali qurollar yoki yo'nalishning xususiyatidan kelib chiqib tayyorlagan mahsulotlaridan namunalar;	
		Ota-onalar yoki o'quvchilar bilan o'tkazgan ma'ruzalarning yozma bayoni;	
		Texnologiya fani bo'yicha tarbiyaviy va sinfdan tashqari ish shakllari, turlarini o'rganganligi	
		Amaliyot o'tagan muassasadan berilgan tavsifnoma	
		Ma'naviy-ma'rifiy, ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlar ssenariyasi, dastur-taklifnomasi, bayonnomasi	
		Individual topshiriqlar o'z vaqtida taqdim etilmagan, bajarilgan vazifalar yuzasidan hisobot topshirilmagan, reja to'liq bajarilmaganda.	
3	Hisobot	Hisobot tuzulishi va mazmuni to'liq talabga javob beradi, maqsadga muvofiq.	20
		Hisobot tuzulishi va mazmuni qisman javob beradi.	
		Hisobot tuzulishi va mazmuni talab darajasida emas	
		Mavjud hisobotda amaliyot davri to'g'risida har bir talaba o'z nuqtai nazaridan kelib chiqib mustaqil xulosaga kela olgan bo'lishi, amaliyot davri muammolari va qiyinchiklar batafsil tahlil etilgan. Taqdim etilgan materiallar o'zining tartibi, mantiqiyligi bilan ajralib turadi. Tayyorlangan taqdimot talab darajasida tayyorlashi lozim.	
		Hisobotda amaliyot yuzasidan talaba har bir yo'nalishda mustaqil xulosaga kela olgan bo'lishi, amaliyot davri muammolari va qiyinchiklar batafsil tahlil etilgan. Taqdim etilgan materiallar o'zining tartibi, mantiqiyligi bilan ajralib turadi. Tayyorlangan taqdimot maqsadga muvofiq.	
	Jami		100

Talaba amaliyot davridagi faoliyatini institut raxbarining buyrug'i bilan tasdiqlangan komissiya oldida himoya qiladi va reyting tizimi bo'yicha baholanadi.

Har semestr yakunida vazifalarni bajarilishiga ko'ra, amaliyotchi talaba 100 ballik tizimda baholanadi. Amaliyot kreditlarini egallash uchun minimum 60 ball to'plashi zarur.

Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish ta'lim jarayonining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Aniqlik, baholash usullarining xilma-xilligi va o'quv jarayoniga e'tibor ob'ektiv va adolatli baholashga yordam beradi, bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida

ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarorlari.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli Farmonining 7-bandi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21- iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ – 289- Qarorining 2-bandi.

4. 2020-yil 23-sentyabr "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son qonuni.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Xalq ta'lim va Maktabgacha ta'lim vazirliklarining 2019 yil "5" martdagi 10-q/q-13-4-son qarori ilovasi asosida Pedagogika ta'lim sohasi talabalarining malakaviy pedagogik amaliyotini tashkil etish tartibi to'g'risida Muvaqqat nizom.

6. Sobirova M. Pedagogik amaliyot. Metodik tavsiyalar. –N.: NamDU, 2009, 52 bet.

7. Sharipov Sh.S. va boshq. Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining kasbiy moslashishning tashkiliy-metodik omillari (metodik qo'llanma) –T.: Nizomiy nomidagi TDPU, - 2007. – 37 b

8. Olimov Sh.Sh. B.T.Jurayev. Malakaviy amaliyot.Metodik qo'llanma.B-2021.5-6 bet.

9. N.I. Mirzakulova. "Talabalarining amaliyot davrida pedagogik mahoratini rivojlantirish". Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences.International scientific-online conference. 06.2024

10. N.I. Mirzakulova. "Malakaviy va pedagogik amaliyot o'qituvchi kasbiy tayyorgarligining yetakchi bo'g'ini sifatida". Xalqaro konferensiya – 2024, 15-may. "Fan, ta'lim va innovatsiyalar: nazariya, amaliyot, natijalar" mavzusida ilmiy-nazariy anjuman.
<https://bui.uz/konferensiya.html>

11. N.I. Mirzakulova. "Talabalar malakaviy pedagogik amaliyotlarni o'tashlari davrida o'quv-uslubiy ta'minotining o'rni". Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 8-son 2024-yil, avgust.

12. N.I. Mirzakulova. "Talabalar malakaviy va pedagogik amaliyotni olib borish jarayonida kutilgan natijalar hamda tayyorlashi lozim bo'lgan hujjatlar". "Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlar" mavzusidagi 72-sonli respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiyas 1-oktyabr, 2024-yil

13. Mirzakulova N. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish shakllarini modifikatsion yondashuv asosida takomillashtirish // MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS: a collection of scientific works of the International scientific conference (31st May, 2023) – England, London: "CESS", 2023. Part 1.

14. D.A. Sayfullayeva, N.I.Mirzakulova. Amaliyotchi-talabalarining malakaviy pedagogik amaliyotiga qo'yiladigan talablar. «Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari» mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy, masofaviy konferensiya. 18-to'plam 1-qism may 2023. www.pedagoglar.uz.

15. Mirzakulova N.I. Oliy ta'limda modifikatsion yondashuv. Innovation in the modern

